

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjaeva
29-avgust 2025-yil**

SHARQ ALLOMALARINING ILMIY ME’ROSI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60220300 - Tarix

Fan/modul kodi SH1404		O'quv yili 2025/2026	Semestr 2	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yukla ma (soat)
	Sharq allomalarining ilmiy me'rosi		60	60	120
2.	I. Fanning mazmuni. Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda Sharq zaminidan etishib chiqqan alomalarning merosi haqida ob'ektiv taassurot o'yg'otish. Ushbu qomusiy allomalarning tabiiy va ijtimoiy fanlarga qo'shgan hissasini atroflicha tahlil qilish. Ularning dunyo ilmidagi o'rnini anlash, sharq allomalarining ilmiy merosini haqidagi bilimlarni qaror topshirish mavjud ilmiy adbiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish, fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar, mos bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir. Fanning asosiy vazifalari: sharqda diniy bilimlar bilan dunyoviy bilimlarning o'zaro aloqadorligini fahmlash, ilmiy markazlar haqida tasavvurga ega bo'lish, tarixiy ma'lumotlarni xolis, tarixiylik asoslari asosida tahlil qilish va mustaqil tadqiq qilish ko'nikmalarini o'rgatishdan iborat. Fanning asosiy manbalari: Sharq allomalari asarlari – Al-Xorazmiy (Al-jabr val-muqobala), Forobiy (Fozil odamlar shahri), Beruniy (Kitob al-Hind), Ibn Sino (Tib qonunlari), Imom Buxoriy (Al-jome' as-sahih), Termiziy (Al-jome'), Yusuf Xos Hojib (Qutadg'u bilig), Ahmad Yassaviy (Devoni hikmat), Alisher Navoiy (Xamsa, Muhokamat ul-lug'atayn), Ulug'bek (Zij-i jadid) va boshqalar. Ilmiy sharhlar va tadqiqotlar – Sharqshunoslik instituti nashrlari, qo'lyozmalar kataloglari, tarjimalar va ilmiy monografiyalar. Darslik va qo'llanmalar – Sharq allomalarining ilmiy merosi, O'zbek falsafasi tarixi, Sharq falsafasi darsliklari. Qo'shimcha manbalar – Milliy kutubxona fondlari, elektron resurslar va xalqaro ilmiy bazalar (JSTOR, Google Scholar va b.). Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Sharq allomalarining ilmiy me'rosi fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Oxford universiteti (Buyuk Britaniya)ning San'at tarixi fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 2-o'rinni egallagan bo'lib, tarix, etnologiya sohasi bo'yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Oxford universitetining History of the art kursida dunyo xalqlari san'ati tarixi nazariyasi bilan bir qatorda,				

zamonaviy xalqlar ijtimoiy-madaniy hayoti taraqqiyoti muammolari ham keng yoritiladi.

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur madaniy xilma-xillikni tadqiq etuvchi xalqaro ilmiy muassasalar, ayniqsa, Britaniya universitetlarida keng tadqiq qilinuvchi xalqlar madaniyati, san’ati va ijtimoiy hayoti tarixini o’rganish va ta’limi usullari prinsiplari asosida boyitilgan.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko’nikmalarini rivojlantirish – talabalar dunyo xalqlari madaniy o’ziga xosliklarini mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda nazariy-amaliy xulosa chiqarishni o’rganadilar.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. “Sharq allomalarining ilmiy merosi” fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Fanning predmeti, maqsad va vazifalari. O’rta Osiyo allomalarining faoliyati va ularni qoldirgan ilmiy meroslari jamiyat hayotidagi o’rni va ahamiyati. Moddiy va ma’naviy madaniyatimizning noyob merosi bo’lgan Sharq allomalari ilmiy merosini va milliy madaniyatlar rivojlanishida ularning qo’shgan hissasi kabi nazariy masalalari qamrab oladi.

2-mavzu: IX – XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan, madaniy-ma’rifiy hayot

IX–XII asrlar Movarounnahr va Xuroson hududlari Sharq uyg’onish davrining yuksak bosqichini tashkil etadi. Bu davrda ilm-fan, madaniyat va ma’rifat mislsiz taraqqiy etib, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo’shildi. Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Farg’oniy, Imom Buxoriy, Moturidiy, Zamaxshariy kabi allomalar matematika, astronomiya, falsafa, tibbiyot, mantiq, ilohiyot, tarix va adabiyot sohalarida ulkan asarlar yaratdilar. Madrasalar, kutubxonalar, ilmiy maktablar faoliyati rivojlandi, ilmiy an’ana va falsafiy tafakkur yuksaldi. Mazkur davr merosi nafaqat musulmon Sharqi, balki butun jahon ilm-fan taraqqiyotida muhim o’rin tutib, bugungi kunda ham o’quvchi-yoshlar uchun bebaho ma’naviy va ilmiy manba bo’lib xizmat qilmoqda.

3-mavzu: Abu Abdullox al-Xorazmiylarning hayoti va faoliyati

Abu Abdulloh Xorazmiyning Somoniylar podshosi Nuh II ning vaziri Abul Xasan al-Utbiy huzurida kotib bo’lib ishlashi. “Mafotix al-Ulum” (Ilmlar kalitlari) asari Abu Abdulloh Xorazmiyning shoh asari. Ushbu asarda “Arab ilmlari” ning tavsifi. Fiqh. Kalom. Grammatika. Tarix. She’riyat va aruz. “Mafotix al-Ulum” asarida an’anaviy bo’lmagan, ya’ni “Arab bo’lmagan” ilmlarga tavsif. Falsafa. Mantiq. Tibb. Arifmetika. Xandasa. Ilm un-nujum. Musiqqa. Mexanika. Kimyo. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va O’rta Osiyoda ilmshunoslik.

4-mavzu: Ahmad al-Farg’oniy va Ahmad al-Marvaziyning hayoti va faoliyati

Al-Fargʻoniyning Marvda ijod qilishi. Al-Fargʻoniyning Bogʻdoddagi faoliyati. Al-Fargʻoniyning rasadxonada kuzatishlar olib borishi. Al-Fargʻoniy tomonidan 861-yilda Nil daryosi suvining satxini oʻlchovchi nilometrni yasashi. Al-Fargʻoniyning “Samoviy xarakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi” asari va uning XII asrdayoq Yevropada lotin tiliga tarjima qilinishi. “Alfraganus” nomi bilan uning asarlarini Yevropada chop etilishi va Universitetlarda asosiy qoʻllanma sifatida oʻqitilishi. Al-Fargʻoniy oʻrta asrlarda tabiiy – ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qoʻshgan alloma. 1998-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan allomaning 1200 yillik tavallud sanasining nishonlanishi.

Ahmad al-Marvaziy (taxminan 780-880 yy.)ning Bogʻdod ilmiy maktabida tutgan oʻrni. “Habash al-Hosib (Habash hisobchi)” Ahmad al-Marvaziyning “Ziji” va uning ahamiyati. Al-Marvaziy xalifa al-Maʼmun davrida olib borilgan tajriba va ilmiy tadqiqotlarning faol ishtirokchisi. Al-Marvaziyning 20 ga yaqin asarlar yaratishi va uning fan tarixidagi oʻrni.

5-mavzu. Imom al-Buxoriy va Abu Iso Muhammad at-Termiziylarning hayoti va ilmiy merosi

Hadis ilmining rivojidadagi oltin davr. Islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan 6 ta ishonchli hadislar (As sihoḥ as-sitta). “Hadis ilmida Amir al-Moʻminiyn” degan sharaflī nomga sazovor boʻlgan Imom al-Buxoriyning ilm izlab sayoxat qilishlari. Imom Buxoriyga saboq bergan ustozlar. Termizlik mashxur muhaddis Abu Iso at-Termiziy al-Buxoriyga ham shogird, ham safdosh. Imom al-Buxoriyning Nishopurdagi faoliyati. Imom al-Buxoriyning Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy bilan aloqasining buzilishi.

Imom al-Buxoriyning “Al-Jomeʼ as-sahih”, “Al-Adab al-mufrad” asrlari. Imom al-Buxoriyning hadislar toʻplami. Qurʻondan keyingi ikkinchi oʻrinda turadigan manba. 1998-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni Bilan buyuk hadisshunos olimning 1225 yillik tavallud kunining nishonlanishi. Imom al-Buxoriy maqbarasining qayta tiklanishi tarixiy voqea.

Abu Iso Muhammad at-Termiziyning hadisshunos olim boʻlib yetishishidagi omillar. Uning sharq mamlakatlariga safari. Allomaning ustozlari. Buyuk muxaddis maktabidan yetishib chiqqan shogirdlar. At-Termiziyning “Al-Jomiʼ”, “Ash-Shamoil an-Nabaviya”, “Al-ilal fi-l-hadiys” kabi asarlari va ularning islom olamidagi ahamiyati.

“Ash-Shamoil an-Nabaviya”asari paygʻambar Muhammad alayhissalomning shaxsiy hayotlari, suvrat va siyratlari, odatlari xaqidagi 408 hadisni oʻz ichiga olgan muhim manbadir. At-Termiziyning 1200 yillik yubileyini 1990-yilda oʻtkazilishi.

6-mavzu. Abu Nasr Forobiy oʻrta asrning buyuk qomusiy olimi

Abu Nasr ibn Muhammad ibn Uslugʻ Tarxon – Forobiy jahon madaniyatiga katta hissa qoʻshgan Markaziy Osiyolik mashxur faylasuf. “Muallim us-soniy” Forobiy ijodida Bagʻdod davri. Forobiyning oʻz ilmini oshirishdagi saʼyi

harakatlari. Forobiyning Damashqdagi faoliyati. Forobiyning o'rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asarlar yaratishi. Forobiyning qadimgi Yunon mutafakkirlari asarlariga sharhlar yozishi. Uning falsafaning umumiy masalalarga bag'ishlangan asarlari. Falsafa va tabiiy fanlarning fan sifatidagi mazmuni, tematikasi haqidagi asarlari. Uning ijtimoiy-siyosiy, davlatni boshqarishga, axloq, tarbiyaga oid asarlari. Forobiyning tabiiy-ilmiy fanlar haqidagi qarashlari. "Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi" asarida 30 dan ortiq fanning ta'rifi. Forobiyning falsafiy ta'limoti. Borliqning kelib chiqishi haqida Forobiy. Forobiyning "Ilm va san'atning fazilatlar" asari. Forobiyning "Aql ma'nolari haqida" risolasi. Forobiy lirikasining musulmon sharqidagi matiqqa oid fikrlarining rivojiga ta'siri.

Forobiyning "Fozil shahar aholisining maslagi" risolasi. Fozil jamiyat haqidagi o'ylar. Forobiyning "Musiqqa haqida katta kitob" asari, uning o'rta asrda yirik musiqashunos sifatida shuxrat topishiga sabab bo'lishi. Sharqdagi Forobiy izdoshlari. Fanda Forobiyshunoslikning rivojlanishi.;

7-mavzu. Qaffol ash-Shoshiy O'rta Osiyolik buyuk alloma. Abu Mansur al-Moturudiy – buyuk kalom imomi va fiqh allomasi

Abu Mansur al-Moturudiy suniy etiqodidagi ikki yirik oqimlardan biri bo'lmish Moturudiya oqimining asoschilaridan. Moturudiyning Samarqandda dastlabki ilmlarni o'rganishi. Somoniylar xukmronlik yillari alloma yashagan davr. Al-Moturudiyning ustozlari. Uning Hanafiya mazhabi olimlaridan saboq olishi. Faqihlar va muhaddislar bilan muloqotlar.

Abu Mansur al-Moturudiyning "Kitob at-tavhid" asari va uning ahamiyati. Uning islom dinidagi suniylarning to'rtta asosiy mazhabi asoschilarining asarlarini o'rganib, fiqh va kalomga oid kitoblar yozishi. "Ta'vilot al-Qur'on" asari.

Abu Mansur al-Moturudiyning izdoshlari va shogirdlari. Uning islom dini Hanafiya mazhabini Movarounnahrda tarqalishi va o'zidan keyingi avlodlarga qusursiz yetkazishda katta hissa qo'shishi. Moturudiyning dunyo olimlari tomonidan e'tirof etilishi. Moturudiyning "Imom al-Xudo" va "Imom al-mutakallimin" (Hidoyat yo'li imom va mutakallimlar imomi) deya ehtirom ko'rsatilishi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-dekabrda qabul qilingan qaroriga binoan 2000- yilda allomaning 1130 yilligi tavallud sanasining nishonlanishi.

8-mavzu. Abu Ali ibn Sino O'rta osiyolik buyuk ensklopedik alloma

Abu Ali ibn Sino yashagan davrga xarakteristika. Ibn Sinoning dastlabki saboq olishlari. Ibn Sinoning Ma'mun Akademiyasidagi faoliyati. Uni Isfaxonga qochishi. Ibn Sino hayoti haqida Juzjoni. Ibn Sinoning 450 dan ziyod asar yozishi. Uning "Kitob ush-shifo" asari. "Donishnoma" Ibn Sinoning falsafiy asari. Ibn Sino zamonasining yetuk shoiri. "Urjuza" nomli tibbiy asar. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari va uning ahamiyati. "Qonun"ning 800 yil davomida hakimlar uchun asosiy qo'llanma bo'lishi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari. Uning "Shayx

ur-ra'is" nomiga sazovor bo'lishi. Ibn Sinoning izdoshlari va shogirdlari. Ibn Sino asarlarini Yevropada XII asrda boshlab lotin tiliga o'g'irilishi.

9-mavzu. Abu Rayhon Beruniy Xorazm Ma'mun akademiyasining raisi

O'rta asrlarning qomusiy allomasi Beruniy yashagan davrga qisqacha xarakteristika. Xorazm Ma'mun akademiyasining vujudga kelishi. Abu Rayhon Beruniyning Xorazmshohlar saroyidagi faoliyati. Abu Nasr Mansur ibn Iroq Beruniyning ustoz. Beruniyning qadimgi tillarni o'rganishi. Beruniy va Mahmud G'aznaviy. Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari. Beruniyning tarix konsepsiyasi. Beruniyning "Hindiston" asari hindshunoslikda tengi yo'q asar. Beruniyning "Minerologiya" asari ushbu sohada noyob asar. Beruniyning dorivor g'iyohlarga bag'ishlangan "Saydana" asari. Beruniyning "Ibn Sino bilan yozishmalari" va unda dunyoqarash masalalari. "Geodeziya" asari. Beruniy asarlarining musulmon Sharqi madaniyatiga ta'siri. Beruniy asarlariga bag'ishlangan Yevropalik olimlar asarlari. O'zbekistonda Beruniyshunoslik. O'zbekistonda Fan sohasida Beruniy nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilishi.

10-mavzu. Abu al-Mu'yn an-Nasafiy, Maxmud az-Zamaxshariy va Burhonuddin al-Marg'inonilarning ilmiy merosi

Abul al Mu'yn an-Nasafiy (1027–1147- yy.) islom ilohiyoti, falsafasi, kalom ilmini rivojlantirgan alloma. Nasafiy al-Moturdiy ta'limotining davomchisi. Nasafiyning kalom ilmi masalalariga bag'ishlangan 15 dan ziyod asarlari. Allomaning "Baxr al-kalom" kitobi islom dini falsafasini tashkil qilgan kalom ilmi bo'yicha eng qimmatli manbadir.

Xorazm zaminida jahon fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan alloma. Buxorodagi tahsil. Mahmud az-Zamaxshariyning ustozlari. Olimning Marv, Nishopur, Isfahon, Shosh va Bog'dod xamda Makkada ilmiy ishlar bilan shug'ullanishi. Uning Makkada "Jorulloh" (Allohning qo'shnisi) laqabini olishi. Zamaxshariy arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jug'rofiya, tafsir, Hadis va fiqxga oid 50 dan ortiq asarlar yozishi. Uning arab tili grammatikasiga oid "Al-Mufassal" nomli kitobini yozishi. Zamaxshariy ijodini o'rganilishi tarixidan. Az-Zamaxshariyning "Al-Kashshof an-haqoiq it-tanziyl va uyun il-aqvoiyl fi vujud it-ta'viyl "(("Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini ochish")) asarini Qur'on tafsiriga bag'ishlanishi. "Al-Kashshof "asari Qur'onni o'rganishda muhim manba. Zamaxshariyning dahosi va bilimi butun musulmon Sharqida unga katta shuxrat keltirishi.

Burhonuddin al-Marg'inoniy (1123-1197 yy .) O'rta Osiyodagi buyuk fiqhshunos alloma uni Samarqanddagi faoliyati. Uni ta'lim olgan 40 dan oshiq ustoz. Uning fiqhshunoslikka oid asarlari. Al-Marg'inoniyning butun islom olamida mashhur bo'lgan "Hidoya "asari. "Hidoya"dagi fiqhiy masalalar. "Hidoyani" nashr etilishi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga asosan 2000 yilda Al-Marg'inoniyning 910 yillik tavallud sanasining keng jamoatchilik tomonidan nishonlanishi.

11-mavzu. Mirzo Ulug‘bek va Ali Qushchi hayoti va ilmiy merosi).

Muhammad Tarag‘ay (Ulug‘bek) (1394-1449). Temuriylar hukmdori, shonli mutafakkir. Mirzo Ulug‘bek va Amir Temur. Samarqand ilmiy muhitining shakllanishida Mirzo Ulug‘bekning o‘rni. Temur kutubxonasini boyitish. Mirzo Ulug‘bekning yaqin saflari: Qo‘zizoda Rumiy, G‘isiddin Jamshid, Ali Qushchi. Samarqandda Ulug‘bek rasadxonasining qurilishi va uning aniq fanlar rivojlanishidagi o‘rni. Samarqand va Buxoroda Ulug‘bek madrasasining qurilishi. Ulug‘bekning “ZijizhadidiKuragoniy” asari. Samarqand astronomiya maktabi. Mirzo Ulug‘bek ilmiy merosini butun dunyoga targ‘ib qilish. Mirzo Ulug‘bek merosini bugun o‘rganish. "Temuriylar Uyg‘onish davri".

12-mavzu. O‘rta Osiyolik diniy muttafakirlar, Yirik tariqatlar va ularning asoschilari

Tasavvuf ta‘limotining keng yoyilishi natijasida O‘rta Osiyoda yirik tariqatlar vujudga keldi. Xoja Abdulholiq G‘ijduvoni asos solgan Xojagon tariqati keyinchalik Bahouddin Naqshband tomonidan mukammallashtirilib, Naqshbandiya tariqatiga aylandi. Ahmad Yassaviy asos solgan Yassaviya tariqati esa turkiy xalqlar ma‘naviy hayotida muhim o‘rin egalladi. Ushbu tariqatlar odob-axloq, ruhiy poklanish, halollik va xalqparvarlik g‘oyalari ilgari surdi.

13-mavzu. Najmiddin Kubro, Xoja Ahmad Yassaviy, Baxouddin Naqshbandiy hayoti va ilmiy merosi

Najmiddin Kubro (1145–1221) – mashhur mutasavvif, “Kubraviya” tariqatiga asos solgan alloma. U Xorazmda tug‘ilib, tasavvufning nazariy va amaliy jihatlarini mukammal ishlab chiqqan. Uning ta‘limotida ruhiy poklanish, nafsni yengish, Allohga muhabbat va ma‘rifat markaziy o‘rinni egallaydi. Kubraviya tariqati orqali keyingi asrlarda ko‘plab mashhur shayxlar yetishib chiqqan.

Xoja Ahmad Yassaviy (1103–1166) – Turkiston zaminida yashab ijod qilgan buyuk mutasavvif va “Yassaviya” tariqatining asoschisi. U o‘zining “Hikmatlar” asari orqali tasavvufiy g‘oyalarni xalqchil va sodda tilda targ‘ib qilgan. Uning ta‘limotida insonning ma‘naviy poklanishi, Allohga ixlos, insoniy fazilatlarini ulug‘lash hamda xalq orasida kamtarlik va xizmat qilish g‘oyalari asosiy o‘rinda turadi. Yassaviya tariqati butun turkiy dunyoga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Bahouddin Naqshband (1318–1389) – tasavvuf tarixida yirik mutasavvif, “Naqshbandiya” tariqatining asoschisi. U Buxoroda faoliyat yuritib, “Dil ba yoru, dast ba kor” (“Dil Xudo bilan, qo‘l mehnatda”) shiorini ilgari surdi. Naqshbandiya tariqati jamiyatda mehnat, halollik, ixlos, xalq bilan birga bo‘lish kabi g‘oyalarni targ‘ib qildi. Ushbu tariqat asrlar davomida keng yoyilib, musulmon dunyosida eng nufuzli ma‘rifiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

14-mavzu. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi

Alisher Navoiy (1441-1501) — buyuk shoir va olim. Temuriylar davridagi “Hiroat akademiyasi”. Samarqandda Navoiy. Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy. 1472 yildan Alisher Navoiyning vazir etib tayinlanishi. Alisher Navoiy va Hiroatning siyosiy hayoti. Alisher Navoiy tomonidan Ixlosiya madrasasi, Xolosiya xonaqohi va Shifoiya kasalxonasi qurilishi.

Alisher Navoiy o‘zbek adabiyotining asoschisi. "Anchovy". Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy. Alisher Navoiyning falsafiy-didaktik asarlari. O‘zbek olimlarining ilmiy ishlariga tavsif. Navoiy merosi va zamonaviyligi.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) — yozuvchi, shoir, olim va buyuk davlat arbobi. Bobur Hindistonda imperiyaga asos solgan.

15-mavzu. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) – buyuk davlat arbobi, sarkarda, shoir va adib, “Boburnoma” muallifi. U Andijonda tug‘ilib, temuriylar sulolasidan bo‘lgan. Yoshligidan ilmga, adabiyotga, san‘at va siyosatga qiziqqan. Bobur o‘z davrining iste’dodli shoirlaridan biri bo‘lib, lirika va epik janrlarda ijod qilgan, g‘azal, ruboiy va qasidalar bilan mashhur.

Boburning eng yirik asari “Boburnoma” bo‘lib, unda muallif o‘z hayoti, yurishlari, davrining siyosiy-ijtimoiy hayoti, tabiat manzaralari, mamlakatlarning iqtisodiy va madaniy ahvoli haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Ushbu asar nafaqat tarixiy manba, balki badiiy jihatdan ham yuksak ahamiyatga ega. Bobur Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos solib, yirik siyosiy va madaniy meros qoldirdi. Uning ijodida insonparvarlik, tabiatga muhabbat, hayotiy kechinmalar va milliy iftixor g‘oyalari ustuvor o‘rin tutadi.

Mazkur mavzuni o‘rganish orqali talabalar Boburning adabiy merosi, “Boburnoma”ning tarixiy-badiiy ahamiyati hamda uning davlat arbobi sifatidagi faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmasini hosil qiladilar.

III. Seminar mashg‘ulotlar uchun tavsiya etiladigan mavzular hamda seminar mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. “O‘rta Osiyo allomalarining madaniy merosi” fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. IX – XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan, madaniy-ma’rifiy hayot
3. Abu Abdullox al-Xorazmiylarning hayoti va faoliyati
4. Ahmad al-Farg‘oniy va Ahmad al-Marvaziyning hayoti va faoliyati
5. Imom al-Buxoriy va Abu Iso Muhammad at-Termiziylarning hayoti va ilmiy merosi
6. Abu Nasr Forobiy o‘rta asrning buyuk qomusiy olimi
7. Qaffol ash-Shoshiy O‘rta Osiyolik buyuk alloma. Abu Mansur al-Moturudiy – buyuk kalom imomi va fiqh allomasi
8. Abu Ali ibn Sino O‘rta osiyolik buyuk ensklopedik alloma
9. Abu Rayhon Beruniy Xorazm Ma’mun akademiyasining raisi
10. Abu al-Mu‘yin an-Nasafiy, Maxmud az-Zamaxshariy va Burhonuddin al-Marg‘inoniylarning ilmiy merosi
11. Mirzo Ulug‘bek va Ali Qushchi hayoti va ilmiy merosi)
12. O‘rta Osiyolik diniy muttafakirlar, Yirik tariqatlar va ularning asoschilari
13. Najmiddin Kubro, Xoja Ahmad Yassaviy, Baxouddin Naqshbandiy hayoti va ilmiy merosi
14. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi
15. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

1. Muso al-Xorazmiy hayoti va faoliyati bo‘yicha test va savolnomalar tayyorlash.

	2. Abu Abdulloh al-Xorazmiy hayoti va faoliyati mustaqil ravishda manbalardan foydalanib ko'rgazma tayyorlash. 3. Ahmad al-Farg'oniyni hayoti va faoliyati bo'yicha slayd yaratish. 4. Imom al-Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish orqali glossariy tayyorlash. 5. Abu Iso Muhammad at-Termiziyni hayoti va ilmiy merosi qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlash. 6. Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasida yubileyi nishonlangan O'rta Osiyolik allomalar haqida ma'lumot tayyorlash. 7. Mustaqil ravishda manbalardan foydalanib ko'rgazma tayyorlash. 8. Imom al-Buxoriyning yubileyi tadbiriga oid fotobom tayyorlash. 9. Ahmad al-Marvaziyning hayoti va faoliyati Internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy ma'ruza tayyorlash. 10. Ahmad al-Farg'oniyni yubileyi tadbiriga oid fotobom tayyorlash . 11. Mustaqil ravishda manbalardan foydalanib ko'rgazma tayyorlash 12. "Islom va ilm" mavzusida maqola yozish. 13. "Muso Xorazmiy va Abu Abdulloh Xorazmiylarning dunyo sivilizatsiyasidagi o'rni haqida" esse yozish. 14. At-Termiziyni "Ash-Shamoil an-nabaviya" asari xususida ma'lumotnoma yozish. 15. "Ahmad al-Farg'oni O'rta Osiyolik mashhur mutaffakir" mavzusida ma'ruza tayyorlash. 16. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va O'rta Osiyoda ilmshunoslik kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish orqali glossariy tayyorlash. 17. Qaffol ash-Shoshiy O'rta Osiyolik buyuk alloma mavzusida esse yozish. 18. Abu Mansur al-Moturudiy – buyuk kalom imomi va fiqh allomasi maruza tayyorlash. 19. Mustaqil ravishda manbalardan foydalanib ko'rgazma tayyorlash. 20. Abu al-Mu'yyin an-Nasafiyni ilmiy merosi ma'lumot tayyorlash. 21. Mahmud az-Zamaxshariyning ilmiy merosi mavzusida ko'rgazma tayyorlash. 22. Burhonuddin al-Marg'inoniyni ilmiy merosi mavzusida referat yozish. 23. Mirzo Ulug'bek va Ali Qushchi hayoti va ilmiy merosi esse yozish. 24. Alisher Navoiy hayoti va ijodi bo'yicha ko'rgazma tayyorlash. 25. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi slayd tayyorlash. 26. Nasafiyni "Baxr al-kalom" kitobimaruzasi qilish. 27. Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" kitobi mavzusida esse yozish. 28. Mirzo Ulug'bek merosini bugun o'rganish mavzusida ko'rgazma tayyorlash. 29. Alisher Navoiy o'zbek adabiyotining asoschisi mavzusida slayd tayyorlash. 30. Temuriylar davridagi "Hirot akademiyasi" mavzusida esse yozish.
3.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Talaba bilishi kerak: Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: – o'rta asrda Markaziy Osiyoda ijod etgan mutafakkirlarning beqiyos ilmiy xazina yaratdilar va ularning durdona meroslari, boy ijodi, ilmiy va falsafiy fikrlari bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etishini o'rganadilar; – Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy kabi buyuk faylasuf va allomalarning asarlari jahon sivilizatsiyasining oltin xazinasidan munosib o'rin olgan, jahon fani va madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan asarlar bilan yaqindan tanishib chiqiladi;

	– oʻrta asr Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijodini tadqiq etgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari bilan toʻliq tanishib chiqib bilish va ulardan foydalanish koʻnikmalariga ega boʻlishi; – talaba tarixiy maʼlumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida oʻrganish, arxiv hujjatlarini, tarixiy manbalarni mustaqil, tadqiq qilish, oʻrganish koʻnikmalariga ega boʻlishi kerak; – talaba ilmiy maʼlumotlarni tahlil qila olish malakalariga ega boʻlishi kerak; – talaba tarixini tahlil qilish usullarini qoʻllash, taʼlim va tarbiya oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik va aloqadorlikni aniqlay olish, muammolar boʻyicha yechimlar qabul qilish malakasiga ega boʻlishi kerak.
	VI. Mavzu yuzasidan savollar: 1. Sharq allomalari merosining hozirgi davr maʼnaviy hayotidagi ahamiyati nimada? 2. Muhammad al-Xorazmiyning matematika va astronomiyaga qoʻshgan hissasi haqida nimalarni bilasiz? 3. Abu Nasr Forobiy oʻzining “Fozil odamlar shahri” asarida qanday ijtimoiy-falsafiy gʻoyalarni ilgari surgan? 4. Abu Rayhon Beruniy “Kitob al-Hind” asarida qanday masalalarga eʼtibor qaratgan? 5. Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari jahon tibbiyot taraqqiyotida qanday oʻrin tutadi? 6. Imom Buxoriy va Imom Termiziyning hadis ilmidagi xizmati nimada? 7. Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida davlat boshqaruvi va axloqiy tarbiya haqida qanday qarashlar mavjud? 8. Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asari turkiy xalqlar maʼnaviy hayotida qanday oʻrin egallaydi? 9. Mirzo Ulugʻbekning “Zij-i jadid” asari ilmiy jihatdan qanday yangiliklarni olib kirgan? 10. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida ona tilining oʻrni haqida qanday fikr bildirgan?
4.	VII. Taʼlim texnologiyalari va metodlari: • guruhlarda ishlash; • amaliy mashgʻulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni toʻla oʻzlashtirish, tahlil natijalarini toʻgʻri aks ettira olish, oʻrganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliy nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat boʻyicha topshiriqlarni bajarish
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Insopov A. A. Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllanishi va rivojlanish tarixi. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Universitet. 2023. – 194 b. 2. Jumayeva N.A. Sharq allomalarining ilmiy merosi. Oʻquv qoʻllanma. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2020. - 228 b. 3. Maʼnaviyat yulduzlari. -T., 2011.

4. Murtazayeva R. H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. – Toshkent: Go to Print, 2020. – 344 b.
 5. Namozov B. Sharq allomalarining ilmiy-ma’naviy merosi. O‘quv qo‘llanma. - Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2022. - 264 b.
 6. Niyozov G.B., Ahmedov Q., Tojiboyev Q. Sharq allomalri va ma’rifatpar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma’naviy -axloqiy qarashlari. – Toshkent: O‘zbekiston 2010. - 88b.
 7. O‘zbekiston tarixi. Oliy o‘quv yurtlarining tarix fakul’teti talabalari uchun darslik / Mas’ul muharrir A.S.Sagdullayev. – Toshkent: “Vneshinvestprom” 2019. - 642b
 8. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат,маърифат, фидойилик. (адабий-публицистик нашр). – Тошкент: “Маънавият”, 2002. - 400 б.
 9. Ўзбекистон тарихи (Энг қадимги даврдан бугунги кунгача). I жилд. / А.Асқаров ва бошқ. – Тошкент: Маънавият, 2022. – 456 б.
 10. Birinchi renessans allomalari. –Т., 2024.
- Qo‘shimcha adabiyotlar:
1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 416 b.
 2. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан қурамыз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
 3. Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 400 б.
 4. Мирзиёев Ш. М. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 400 б.
 5. Мирзиёев Ш. М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 507 б.
 6. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент.: Ўзбекистон. 2017.
 7. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. –Тошкент: Ўзбекистон. 2017.
 8. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998.
 9. Rajabov Q. Turkiston tarixida o‘tgan 55 buyuk siymo - Т., 2022.
 10. Islom ensiklopediyasi. -Т., 2004.
 11. Ibrohimov A. Biz kim o‘zbeklar. –Т., 2001.
- Axborot manbalari:
12. <https://namdu.uz/books/> - Namangan davlat universiteti Raqamli kutubxona tizimi
 13. <https://www.natlib.uz> - Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
 14. <http://www.hist.msu.ru/ER/index.html> – MDU Tarix fakulteti elektron resurslar kutubxonasi.
 15. <http://www.vost.lit.info> – Sharq kutubxonasi tarixiy manbalar sayti
 16. <http://www.e-tarix.uz> - Vatan tarixiga oid masala va ma’lumotlar
 17. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/22-tarixiy-kitoblar> - Tarixga oid kitoblar
 18. <https://ziyonet.uz> - Ziyonet ta’lim portali
 19. <https://nuu.uz/tarix-fakulteti-2/> - O‘zbekiston Milliy Universiteti kutubxonasi, Tarix bo‘limi.
 20. <https://unilibrary.uz/> - Oliy ta’lim muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi.

	21. https://www.ox.ac.uk/admissions/undergraduate/courses/course-listing/history-art
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari: A.Maroziqov – Qo‘qon davlat universiteti “Tarix kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo‘yich falsafa doktori (PhD), K.Yakubov – ” Qo‘qon davlat universiteti “Tarix kafedrası katta o‘qituvchisi
9.	Taqrizchilar: Erqo‘ziyev A.A.– NamDU, Tarix dotsent, t.f.n. B. Abbosov – NamDU Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, PhD